

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

**BOBOMURODOV FARXOD BOYMUROTOVICH**

**TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARI,  
ERKINLIKLARI VA QONUNY MANFAATLARINI TA’MINLASHNING  
NAZARIY, HUQUQIY VA TASHKILY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Bobomurodov Farhod Boymurotovich**

Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish..... 3

**Бобомуродов Фарход Боймуротович**

Совершенствование теоретических, правовых и организационных основ обеспечения прав, свобод и законных интересов человека в оперативно-розыскной деятельности..... 33

**Bobomurodov Farkhod Boymurotovich**

Improving the theoretical, legal and organizational foundations for ensuring human rights, freedoms and legitimate interests in operational investigative activities..... 67

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 73

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

**BOBOMURODOV FARXOD BOYMUROTOVICH**

**TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARI,  
ERKINLIKLARI VA QONUNY MANFAATLARINI TA’MINLASHNING  
NAZARIY, HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Yu 344-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi veb-sayti ([www.proacademy.uz](http://www.proacademy.uz)) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portali (<https://ziyonet.uz>)da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Karimov Vaxabjan**  
yuridik fanlar doktori(DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Pulatov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**To‘laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori(DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.31/31.12.2020.Yu.67.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 05-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9 uy. Tel.: (99871) 202-04-96; e-mail: [info@proacademy.uz](mailto:info@proacademy.uz)).

Dissertatsiya bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54-sonli raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 202-04-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 22-fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil “22” fevraldagi 20-raqamli reestr bayonnomasi).

**M.M.Mamasiddiqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**Sh.I.Shayzakov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yu.f.f.d (PhD), dotsent

**M.A.Aminjonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori(DSc), professor

## Kirish (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda xalqaro huquq normalari talablari asosida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarning samarali faoliyatini ta'minlash har bir davlatning ustuvor vazifa hisoblanadi. Zero, davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ravnaqi qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatning ta'minlanganiga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar (keyingi o'rinlarda – HMQO deb yuritiladi) mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari tufayli buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha sudga murojaat qilish imkoniyatlarining yaratilganligiga bevosita bog'liqdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda qariyb 1 milliard 500 million kishi buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega emas<sup>1</sup>. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rinlarda – BMT deb yuritiladi) Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan Barqaror rivojlanish maqsadlarida “inson qadri, erkinligi, huquqlarini ta'minlash masalalarini davlatlar konstitutsiyalari va qonunlariga singdirish, fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini hamda odil sudlovdan foydalanishini kafolatlovchi huquqiy asoslarni mustahkamlash”<sup>2</sup> kabilar belgilanganligi huquqni muhofaza qiluvchi, ayniqsa, tezkor-qidiruv faoliyati (keyingi o'rinlarda – TQF deb yuritiladi)ni amalga oshiruvchi organlar faoliyatida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

Jahonda inson huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlari (keyingi o'rinlarda – TQT deb yuritiladi)ni o'tkazishda prokuror va sud nazorati samaradorligini oshirish, tezkor bo'linmalar faoliyatini qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi prinsipi asosida tashkil etish, shuningdek, TQFni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan tashkiliy-huquqiy va amaliy muammolarni hal etish yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Zero, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv jarayonlarida har bir insonning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun ustuvor bo'lishini ta'minlashda TQFni amalga oshiruvchi organlar o'z xizmat vazifalarini vijdonan va mas'uliyat bilan bajarishi talab etiladi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash tizimini isloh qilish, inson huquq va erkinliklarini cheklovchi TQTni qonuniy asoslar va shartlarga amal qilgan holda o'tkazish, bu borada qonunni buzgan har bir mansabdor shaxsni javobgarlikka tortish, fuqarolarga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplash yuzasidan keng qamrovli islohotlar o'tkazilmoqda. BMTning bosh kotibi Antoniu Guterrishning: “O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi va barqaror rivojlanish maqsadlariga qat'iy sodiqligini namoyish etmoqda. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda inson huquqlari, korrupsiyaga qarshi kurashish, qonun ustuvorligini ta'minlash kabi muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratilmoqda.

<sup>1</sup> World Justice Project. Measuring the Justice Gap. URL:<https://worldjusticeproject.org/our-work/research-and-data/access-justice/measuring-justice-gap>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 30.01.2025).

<sup>2</sup> Саммит ООН по устойчивому развитию, 25–27 сентября 2015 года, Нью-Йорк// [https:// www.un.org/ru/conferences/ environment/newyork2015](https://www.un.org/ru/conferences/environment/newyork2015)(Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 31.01.2025).

O‘zbekiston va uning qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi xavfsizlik, barqarorlik va yaqin munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi”<sup>3</sup> deya ta’kidlagani ham yurtimizda inson huquqlarini ta’minlashda munosib sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirish, insonning sha‘ni, qadr-qimmatini daxlsiz bo‘lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, barcha islohotlarimizda inson va uning manfaatlari markaziy o‘rinda turishi va xalqimiz farovonligi, qulay hayot kechirishini ta’minlash davlat organlari uchun bosh maqsad bo‘lishi lozim”<sup>4</sup>. Shu ma’nodagi, bugun inson huquqlari va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq TQTni o‘tkazishda prokuror va sudning nazoratini takomillashtirish muhim jihat hisoblanib, dalillarni yig‘ish va rasmiylashtirishda axborot texnologiyalari hamda ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali HMQO faoliyatining raqamlashtirilishi jinoyatchilikka qarshi kurashishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi (2012), “Jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari to‘g‘risida”gi (2017), “Jabrlanuvchi, guvohlarni va jinoyat Protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (2019) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020), “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023), “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023), “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2024) farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari, prekursorlar, kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda valyuta namunalari ekspress tekshirish jarayonida texnik vositalardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2023) qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>5</sup>. TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning nazariy,

<sup>3</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=269>(Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 01.02.2025).

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // URL: <http://www.lex.uz> (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 02.02.2025).

<sup>5</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi [www.ufl.edu](http://www.ufl.edu), [www.nij.gov](http://www.nij.gov), [www.southwest.edu](http://www.southwest.edu), [illinois.edu](http://illinois.edu), [www.ethz.ch](http://www.ethz.ch), [www.heidelberg.com](http://www.heidelberg.com), [www.unisannio.it](http://www.unisannio.it), [www.waseda.jp](http://www.waseda.jp), [okiu.ac.jp](http://okiu.ac.jp),

huquqiy va tashkiliy asoslari bo'yicha tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan, National University Australia, Griffith University (Avstraliya), University of California, University of California, University of San Francisco, School of Law, New York University School of Law, Harvard Law School (AQSh), National Institute of Justice, Southwest University (AQSh), Heidelberg (Germaniya), University of Pennsylvania Carey Law School, University of Haifa (Isroil), University of Sannio (Italiya), Indiana University Robert H. McKinney School of Law, Canadian Bar Association (Kanada), Institute Zurich (Shveysariya), Waseda University, Okinawa International University (Yaponiya) va Samara davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti va Huquqni muhofaza qilish akademiyasida olib borilmoqda.

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini rivojlantirishga oid tadqiqotlar natijasida qator ijobiy natijalarga erishilgan. Xususan, TQFda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda sud qarorlarini qabul qilish (Southwest University, University of Illinois, Institute Zurich), sudning vakolatlarini kengaytirish (National University Australia), TQFni amalga oshiruvchi organ xodimi, surishtiruvchi, tergovchi faoliyati ustidan idoraviy nazoratning samaradorligini yanada oshirish (National Institute of Justice), TQF ustidan prokuror va sud nazoratini takomillashtirish (University of Sannio, Waseda University, Griffith University), TQFning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish (O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi) ga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Dunyoda TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy asoslari bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda, xususan, TQFni amalga oshiruvchi organ xodimlarining tergovga qadar tekshiruv ishini takomillashtirish, sudga qadar ish yuritishda idoraviy nazoratning normativ-huquqiy tartibga solinishini mustahkamlash, xodimlarni inson huquqlarini to'la muhofaza etish va ta'minlashdagi rolini oshirish, TQFni idoraviy va prokuror nazoratini ta'minlash mexanizmini rivojlantirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash doimo milliy va xorijiy olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan I.R.Astanov, F.R.Gafurov, S.N.Gordeyev, B.E.Zakirov, Sh.I.Zakirov, D.Sh.Israilov, V.Karimov, D.E.Karimova, K.T.Mavlanov, D.M.Mirazov, B.A.Mo'minov, N.S.Pulatova, A.S.Po'latov, B.A.Saidov, Sh.M.Saidov, T.R.Saitbayev, M.A.Tillabayev, D.R.Turayeva, D.Sh.Umarxonova, Sh.F.Fayziyev, A.A.Xamdamov, M.M.Xaydarov va L.Yu.Yugaylarning<sup>6</sup> ishlarida TQFda inson huquqlari, erkinliklarini ta'minlash masalalari muayyan darajada o'rganilgan.

---

[www.griffith.edu.au](http://www.griffith.edu.au), [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz); <https://www.law.upenn.edu/>, <https://mckinneylaw.iu.edu/>,  
<https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.usfca.edu/law>, <https://www.law.nyu.edu/>, <https://hls.harvard.edu>, <https://www.cba.org/> Home, <https://www.haifa.ac.il/?lang=en>, <https://xn--80a.xn--b1aew.xn--p1ai/>,  
<http://eioskuimvd.ru/>, <https://ssau.ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

<sup>6</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar huquqshunos olimlari, jumladan, A.L.Aganeyan, G.N.Vasilenko, A.Ye.Vitovtov, I.F.Gaskarov, R.V.Gonov, A.A.Gorodilov, A.M.Efremov, K.Yu.Yefremov, T.V.Zelenskaya, V.I.Ivanov, N.V.Izotova, A.V.Kavernev, Ye.Ye.Kaymuldinov, D.M.Klyonov, A.Yu.Kozlovskiy, M.P.Kotuxov, Ye.V.Kuznetsov, I.V.Litvinova, M.M.Manukov, V.V.Maslov, S.P.Matveyev, T.T.Mahmutov, S.L.Mirolubov, V.N.Osipkin, E.X.Pashayeva, T.P.Rodicheva, R.S.Rijov, V.Yu.Safonov, A.Yu.Safronov, T.B.Tokalov, V.V.Utkin, V.A.Cherkov, M.G.Shananin, I.D.Shatoxin, D.G.Shashin, L.Ye.Shetnyov, D.Murgio, L.Lustgarten, K.Piispanen, H.Busch, D.Toellborg<sup>7</sup> va boshqa olimlar TQFni amalga oshirishda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning umumiy jihatlariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar olib borganligi mazkur muammoga ilmiy qiziqish juda katta ekanligidan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda ko'rib chiqilayotgan muammoga yaqin mavzularda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.Karimov "Tezkor-qidiruv faoliyatida qonuniylikni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish (DSc)" (Toshkent, 2018), I.D.Shatoxin "Принцип уважения и соблюдения прав и свобод человека и гражданина в оперативно-розыскной деятельности (PhD)" (Санкт-Петербург 2018), D.Sh.Israilov "Tezkor-qidiruv faoliyatga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish (PhD)" (Toshkent, 2024) mavzularida dissertatsiya himoya qilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlari asosan TQFda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda qonuniylikka rioya etish, inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi, prokuror nazorati, TQF natijalaridan foydalanish kabilarga bag'ishlangan. Ayni paytda, respublikada shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq tezkor-qidiruv hamda tergov harakatlarini o'tkazishga sanksiya (ruxsat) berish vakolati tergov sudyasiga berilayotganligi munosabati bilan muammoning dolzarbliigi yanada ortadi va inson huquqlarini ta'minlash TQFni amalga oshiruvchi organlarga bevosita tegishli bo'lganligi bois chuqur va mustaqil tadqiqot o'tkazishni taqozo etadi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan mualliflar olib borgan tadqiqot ishlarida TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni takomillashtirish masalalari kompleks o'rganilmagan. Shu bois TQFda inson huquqlari hamda erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini kompleks tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tezkor-qidiruv faoliyatini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

---

<sup>7</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash tushunchasining mohiyatini tahlil qilish;

TQF prinsiplarining inson huquqlari, erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyatini o'rganish;

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid xalqaro va milliy normativ hujjatlarni tahlil qilish;

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid huquqiy munosabatlarni tasniflash;

TQF ishtirokchilarining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid vazifalarining o'ziga xos xususiyatini aniqlash;

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlar qonunchiligi normalarini tahlil qilish;

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish yuzasidan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ektini** TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini tartibga soluvchi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan milliy qonunchilik hujjatlari va tezkor-qidiruv amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti tajribasi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy izlanishni amalga oshirish jarayonida bilishning analiz va sintez, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, ijtimoiy so'rov, amaliyot materiallari va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanilgan. Mazkur usullardan foydalanish ma'lum darajada dissertatsiya tadqiqoti natijalarining aniqligi va asoslanganligini ta'minlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

amaliyotda ko'p qo'llaniladigan tadbirlarning mohiyati hamda farqli belgisini ajratish maqsadida TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarni to'plash, tezkor kiritish, niqoblangan operatsiya kabi TQTni o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish zarurati asoslantirilgan;

TQTni o'tkazish asoslarini kengaytirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida tezkor bo'linmalar tomonidan tadbirlar o'tkazilishini tezkor-qidiruv qonunchiligida belgilash zarurati asoslantirilgan;

shaxsning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini mustahkamlash maqsadida turar joy daxlsizligi, yozishmalar, telefon so'zlashuvlari, aloqa tarmoqlari orqali

uzatiladigan pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlari sir saqlanishi huquqlarini cheklovchi, shuningdek, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olishga qaratilgan TQTni o'tkazish to'g'risidagi materiallarni tergov sudyasi tomonidan, bank siriga doir ma'lumotlarni olishga qaratilgan TQTni o'tkazish to'g'risidagi materiallarni prokuror tomonidan ko'rib chiqish tartibini qonun normasida mustahkamlanishi asoslantirilgan;

jinoiy faoliyatga aloqadorligini aniqlash maqsadida olingan namunalar bo'yicha ekspress tekshiruvini o'tkazish jarayonida fuqarolarning hayotini, sog'lig'ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki daxlsizligini hamda qonuniy manfaatlarini xavf ostiga qo'yadigan, shuningdek, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar (harakatsizlik)ni sodir etish taqiqlanishini qonunchilikda mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

qiynoqqa solish holatlarining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlarining ma'muriy binolariga olib kelingan shaxslar bilan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha tushuntirish olish hamda ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish protsessual harakatlari, oshkora so'rov, TQT doirasidagi suhbatlar faqat texnik soz videokamera bilan jihozlangan va integratsiya qilingan so'rovxonada o'tkazilishini qonunchilik normasida belgilash zarurligi asoslantirilgan;

TQTda ishlatiladigan sarf-xarajatlarni davlat hisobidan qoplash maqsadida ichki ishlar organlarining moliyaviy ta'minot xizmatlari tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan dalolatnoma yoki shartnoma asosida tezkor bo'linmalarga, ularning banklardagi hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan mablag'lar doirasida tezkor tadbirlar o'tkazish uchun naqd milliy yoki chet el valyutasi mablag'lari banklar tomonidan berilishi tartibini qonunchilikda belgilash lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda ko'rinadi:

TQTni o'tkazish asoslari va shartlari hamda uni o'tkazish to'g'risidagi qarorlarning ko'rib chiqilishi masalalarini TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirishga qaratilgan tartib-taomillar ishlab chiqilgan;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan TQFni amalga oshiruvchi organlarning tezkor bo'linmalari tomonidan TQT o'tkazilganida xolislardan foydalanganlik uchun sarf-xarajatlarni davlat tomonidan to'lab berish tartibi ishlab chiqilgan;

jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish faoliyatini amalga oshirishda hamkorlik qilish masalalarini tartibga soluvchi TQFni amalga oshiruvchi organlarning qo'shma qaror loyihasi hamda "Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning hamkorligi" veb saytini yaratishning tashkiliy asoslari ishlab chiqilgan;

idoraviy va prokuror nazoratining samaradorligini oshirishda TQFni amalga oshiruvchi organlar tomonidan o'tkazilgan TQTning natijasi yuzasidan hisobot yuritish, xodimlarning ish faoliyatida yuzaga kelgan intizom va qonunchilik buzilishining sabab va shart-sharoitlarini tizimli ravishda monitoring qilish hamda har oy amalga oshirilgan ishlar haqida hududiy prokurorga ma'lumot taqdim etish haqida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq TQTni o'tkazish uchun vakolatli sudyaga elektron xabarnoma yuborish tartibi va normativ hujjatning loyihasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari (reprezentativligi) milliy qonunchilik normalari, xalqaro standartlar, xorijiy davlatlar tajribasi, sotsiologik tadqiqotning anketa, intervyu shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni aniqlash, ularning yechimiga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar orqali sinovdan o'tkazilgan hamda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha 175 nafar prokuratura, 40 nafar bojxona organlari, 300 nafar ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining xodimlari, 100 nafar tergovchi, 35 nafar ekspert-kriminalistlar, 100 nafar advokatlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgan, 50 ta taqdimnomalar, 151 ta jinoyat ishi va 122 ta sud hukmi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sinovdan o'tkazilgan hamda respublikaning yetakchi milliy nashrlari va xalqaro jurnallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlarida chop etilgan. Vakolatli davlat organlari tomonidan natijalarning joriy qilinishi bo'yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan va qonunchilik hujjatlari hamda amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda keltirilgan ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotida, TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, shuningdek, "Tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etish", "Jinoyat-protsessual huquqi", "Inson huquqlari" va "Prokuror nazorati" modullarini o'qitishda, o'quv jarayonlarida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda hamda uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan tezkor-qidiruv qonunchiligi normalarini takomillashtirishda, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, TQFni amalga oshiruvchi organlar tezkor bo'linmalari xodimlari uchun inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning metodologik asoslarini yaratishda, shuningdek, Huquqni muhofaza qilish, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi akademiyalari, Bojxona instituti talaba va kursantlari uchun ilmiy va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda hamda o'quv jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

amaliyotda ko'p qo'llaniladigan tadbirlarning mohiyati hamda farqli belgisini ajratish maqsadida TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarni to'plash, tezkor kiritish, niqoblangan operatsiya kabi TQTni o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-344-sonli qonun 14-moddasining uchinchi, o'n to'rtinchi va o'n oltinchi xatboshilariga

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-920-sonli qonunning 1-moddasi bilan o‘zgartirish kiritishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 29-maydagi 04/5-10-1346-sonli dalolatnomasi*). Mazkur takliflarning joriy etilishi tezkor-qidiruv amaliyotida eng ko‘p o‘tkaziladigan ma‘lumotlar to‘plash, tezkor kiritish, niqoblangan operatsiya kabi TQTni o‘tkazishda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashni takomillashtirishga xizmat qilgan;

TQTni o‘tkazish asoslarini kengaytirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida tezkor bo‘linmalar tomondan tadbirlar o‘tkazilishini tezkor-qidiruv qonunchiligida belgilashga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 15-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisi loyihasini shakllantirishda inobatga olingan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 11-oktabrdagi 27/2-268-24-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklif TQTni o‘tkazish asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini mustahkamlash maqsadida turar joy daxlsizligi, yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kuryerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini sir saqlanishi huquqlarini cheklovchi, shuningdek, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olishga qaratilgan TQTni o‘tkazish to‘g‘risidagi materiallarni tergov sudyasi tomonidan, bank siriga doir ma‘lumotlarni olishga qaratilgan TQTni o‘tkazish to‘g‘risidagi materiallarni prokuror tomonidan ko‘rib chiqish tartibini belgilashga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida” Qonunining 21-moddasi loyihasini shakllantirishda inobatga olingan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 11-oktabrdagi 27/2-268-24-sonli dalolatnomasi*). Mazkur takliflar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq TQTni o‘tkazishda qonuniylikka rioya qilish kafolatlarini yaratishga xizmat qilgan;

jinoiy faoliyatga aloqadorligini aniqlash maqsadida olingan namunalar bo‘yicha ekspress tekshiruvini o‘tkazish jarayonida fuqarolarning hayotini, sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki daxlsizligini hamda qonuniy manfaatlarini xavf ostiga qo‘yadigan, shuningdek, inson sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar (harakatsizlik)ni sodir etish taqiqlanishini qonunchilikda mustahkamlashga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari, prekursorlar, kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda valyuta namunalarini ekspress tekshirish jarayonida texnik vositalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-yanvardagi 12-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan nizomning 1-bobi to‘rtinchi bandini, 4-bobning o‘n yettinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik*

*ta'minlash departamentining 2024-yil 18-dekabrda 12-15-91-sonli dalolatnomasi*). Mazkur takliflarning joriy etilishi giyohvandlikka hamda valyuta qimmatliklarining qonunga xilof muomalasiga qarshi qaratilgan TQTni o'tkazishda shaxsning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash kafolatlarini yaratishga xizmat qilgan;

qiynoqqa solish holatlarining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlarining ma'muriy binolariga olib kelingan shaxslar bilan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha tushuntirish olish hamda ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish protsessual harakatlari, oshkora so'rov TQT doirasidagi suhbatlar faqat texnik soz videokamera bilan jihozlangan va integratsiya qilingan so'rovxonada o'tkazilishiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Ayrim protsessual harakatlar yoki boshqa tadbirlarni ichki ishlar organlarining ma'muriy binolarida amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 2024-yil 26-fevraldagi 101-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaning ikkinchi va uchinchi bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2024-yil 8-oktabrdagi 33/03-01/-1858-sonli dalolatnomasi*). Mazkur takliflarning joriy etilishi ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari tomonidan tergovga qadar tekshiruv jarayonlarida oshkora so'rov TQTni o'tkazishning tashkiliy mexanizmini qonunosti hujjatlarida mustahkamlashga xizmat qilgan;

TQTda ishlatiladigan sarf-xarajatlarni davlat hisobidan qoplash maqsadida ichki ishlar organlarining moliyaviy ta'minot xizmatlari tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan dalolatnoma yoki shartnoma asosida tezkor bo'linmalarga, ularning banklardagi hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan mablag'lar doirasida tezkor tadbirlar o'tkazish uchun naqd milliy yoki chet el valyutasi mablag'lari banklar tomonidan berilishi tartibini qonunchilikda belgilashga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Ichki ishlar organlarining banklardagi hisobvaraqlaridan TQTni o'tkazish maqsadida naqd milliy va chet el valyutasini olish, ulardan foydalanish hamda qaytarish tartibi to'g'risida"gi 2022-yil 11-noyabrdagi 63qq, 362V-sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan nizomning «Tezkor tadbirlar uchun banklardan naqd pullarni olish tartibi» nomli 2-bobining 3, 4, 5, 6-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2024-yil 8-oktabrdagi 33/03-01/-1857-sonli dalolatnomasi*). Mazkur takliflarning joriy etilishi IIV tizimida faoliyat ko'rsatuvchi tezkor bo'linmalarning mulkiy turdagi tovlamachilik va firibgarlik hamda boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda TQTni samarali tashkil etish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 15 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatlarida sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 40 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta TQFga taalluqli xalqaro hujjatlar to'plami, tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan jurnallarda

16 ta maqola (shundan 2 tasi xorijda), xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda 22 ta tezis nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 11 paragrafni o‘z ichiga olgan 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda 13 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlariga bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning nazariy asoslari”**ga bag‘ishlanib, TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning tarixiy bosqichlari, TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning mazmun-mohiyati, TQF prinsiplarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Bobning *“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning tarixiy rivojlanish bosqichlari”* deb nomlangan birinchi paragrafida TQFda inson huquqlari, erkinliklarini ta‘minlashning tarixiy shakllanish bosqichlari vaqt mezoniga ko‘ra, retrospektiv tahlil qilinib, quyidagi uch davrga ajratib o‘rganilgan. Bular: birinchi davr (X asrdan XX asrgacha); ikkinchi davr (XX asrning boshlaridan 90-yillargacha); uchinchi davr (1991–2024-yillar). Tadqiqotda mazkur davrlarning o‘ziga xos jihatlari kompleks ravishda chuqur o‘rganilib, TQFda inson huquqlari, erkinliklarini ta‘minlashga oid amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar mazmun-mohiyati, har bir davrning o‘ziga xos xususiyati va farqli jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqotchining fikricha, tarix haqidagi bilimlarni o‘rganish TQFga doir huquqiy asoslarning mazmunini boyitishga va tezkor xodimlarning ishini samarali tashkil etishga hamda to‘g‘ri yo‘nalishni belgilab olishga hissa qo‘shadi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi *“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning mazmun-mohiyati tahlili”* deb nomlanib, unda TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga doir ilk ijtimoiy munosabatlar qachondan yuzaga kelganligi, uning mazmun-mohiyati, tasniflanishi, olimlar ilgari surgan g‘oyalar va qarashlar asosida tadqiqotchi nuqtai nazari belgilab olingan. TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga oid ilgari surilgan fikr-mulohazalar quyidagi 4 guruhga ajratib o‘rganilgan: *birinchi guruh* (K.Yu.Yefremov, F.N.Narzilloev, M.Niyazov, A.A.Gorodilov): TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash idoraviy tekshiruv, prokuror va sudning nazorati orqali ta‘minlanishini; *ikkinchi*

*guruh* (T.T.Mahmutov, V.V.Maslov, V.Karimov): huquqlari himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxslarni tasniflash va ularning huquqiy maqomini aniq belgilash orqali qonuniylik ta'minlanib, TQFda inson huquqlari to'liq himoya qilinishini; *uchinchi guruh* (K.A.Dehkanova, V.F.Gabzalilov, A.M.Xlus): maqomidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etilmasligini; *to'rtinchi guruh* (A.V.Bogdanov, E.N.Xazov, D.M.Xovanova) jinoyat sodir etgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari qonuniy cheklanishini ta'kidlashgan. Olimlarning fikrlarini tahlil qilish asosida TQFda inson huquqlarini ta'minlash mazmuni keng ma'noda inson huquqlarini "himoya qilish" va "qo'riqlash" tushunchalarni o'zida qamrab olishi asoslantirilgan.

Uchinchi paragraf esa "*Tezkor-qidiruv faoliyati prinsiplarining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati*" deb nomlanib, unda TQFda inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar o'rganilgan. Xususan, Ye.Ye.Kaymuldinov, V.Karimov, D.A.Babichev, I.D.Shatoxin, A.V.Kaverznev, N.Yu.Ponomarenko bilan ilmiy bahsga kirishib, TQF prinsiplari *konstitutsiyaviy, sohaviy, tashkiliy turlarga* tasniflangan. Xorij tajribasi asosida O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunining "7<sup>1</sup>-modda. Korxonalar, muassasa, tashkilotlar, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish prinsipi", "7<sup>2</sup>-modda. Kasb etikasi prinsipi", "9<sup>1</sup>-modda. Hamkorlik prinsipi" nomli normalar bilan to'ldirish hamda 8-modda (Konspiratsiya prinsipi)ni yangi tahrirda bayon etish qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga xizmat qilishi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijasida dissertant tomonidan TQFda inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashning mazmun-mohiyati va undagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning ta'siri ilmiy asoslantirilib, tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy asoslari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati tahlili, huquqiy bo'shliqlar, TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid huquqiy munosabatlar chuqur tahlil qilingan.

Bobning birinchi paragrafi "*Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid xalqaro hujjatlar tahlili*"ga bag'ishlanib, unda inson huquqlariga oid 27 ta universal xalqaro hujjat (11 ta deklaratsiya va 16 ta konvensiya), Amerika, Afrika, Yevropa va Osiyo mintaqalarida qabul qilingan 25 ta xalqaro hujjat (5 ta deklaratsiya va 20 ta konvensiya) va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalariga oid jami 115 ta xalqaro hujjat mohiyati tahlil qilinib, mazkur xalqaro hujjatlar bo'yicha hamkorlikdagi chora-tadbirlar yetarli darajada o'tkazilmasligi, huquqiy bo'shliqlarning hali ham mavjudligi isbotlangan. Ushbu omillar natijasida faoliyatning to'g'ri tashkil etilmasligi oqibatida 2021–2023-yillarda kiberjinoyatlar yuzasidan murojaatlarning hajmi 25 barobarga oshganligi natijasida fuqarolarga juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazilayotganligi amaliy misollar bilan asoslantirilgan. Buning oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasining hukumati bilan rivojlanayotgan davlatlar,

xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Bolgariya, Avstriya, Quvayt, Misr, Saudiya Arabistoni, Kipr, Ispaniya davlatlari bilan “*Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor hamkorlik to‘g‘risida*”gi bitimlarni, hozirda respublikamizda sodir etilayotgan umumiy jinoyatlarning 35–40 foizi mulkiy, korrupsiyaviy jinoyatlar (shundan qariyb 20 foizi latent jinoyat) uyushgan jinoiy guruhlar tarkibida sodir etilishi oqibatida jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga va sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasida TQFni amalga oshiruvchi organlar bilan boshqa davlatlarning TQFni amalga oshiruvchi organlari o‘rtasida “Mulkiy turdagi va korrupsiyaviy jinoyatlarni uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilishiga qarshi kurashish haqida”gi bitimlarni qabul qilish taklif etilgan.

Tadqiqotchining fikricha, fuqarolarning mulkiy daxlsizligini ta‘minlashda ularga yetkazilishi mumkin bo‘lgan moddiy zarar kelib chiqmasligi yoki kiber makon (virtual olam)da sodir etilayotgan jinoyatlarni tezda fosh etishda zarur choralar (dasturiy apparat ta‘minotini yaratilishi)ni xalqaro hujjatlarda belgilash zarur deb hisoblaydi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “*Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga oid milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlili*” deb nomlanib, unda normativ-huquqiy hujjatlar yuridik darajasiga ko‘ra o‘rganilgan. Jumladan, 1 ta Konstitutsiya; 5 ta kodekslashtirilgan, 1 ta konstitutsiyaviy hamda 28 ta joriy qonunlar; Prezident hujjatlaridan: 13 ta farmon va 5 ta qaror; Vazirlar Mahkamasining 6 ta qarori; Oliy sud Plenumining 2 ta qarori; 3 ta TQFni amalga oshiruvchi organlarni idoraviy hujjatlari mazmuni o‘rganilib, TQFda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga oid yigirmadan ortiq huquq va erkinliklarning mavjudligi; mazkur huquq va erkinliklarning aksariyati joriy qonunlarning mazmunida o‘z ifodasini topganligi (*masalan, murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi, TQF ishtirokchilari xavfsizligini ta‘minlash, shaxsga doir ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik va boshq.*), biroq hanuzgacha, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash bilan bog‘liq TQTni o‘tkazishga tergov sudyasi ruxsat berishi haqidagi muhim qoidalar TQFning bevosita qonunlarida o‘z aksini topmaganligi va ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etish zarurligi asoslantirilib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq TQTni o‘tkazishga sanksiya (ruxsat) berish vakolatini prokurordan tergov sudyasiga berilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 29-moddasiga, O‘RQ-344-sonli qonunning 16, 21-moddalariga o‘zgartish kiritish taklif etilgan. Shuningdek, “Ustoz-shogird” an‘anasini tizimli ravishda tashkil etish maqsadida TQFni amalga oshiruvchi organlarda uzoq yillardan buyon benuqson xizmat qilayotgan, jinoyatchilikka qarshi kurashishda munosib hissa qo‘shgan xodimlarni rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish uchun “*Eng yaxshi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xizmat murabbiyi*” nominatsiyasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan ta‘sis etish taklif etilgan.

Tadqiqotchining fikricha, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda, ko‘zbo‘yamachilik, rasmiyatchilikdan to‘liq voz kechib, jinoyat va hodisalar haqida murojaatlarning markazlashgan hisobga to‘liq ro‘yxatga olinishini ta‘minlash, ob‘ektiv va xolisona tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda

TQFni amalga oshiruvchi organlarning rahbarlari, prokurorning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish, hanuzgacha amaliyotda qonun va qonunosti hujjatlarga amal qilmaslik holati uchrayotgani, (masalan, tezkor xodimlarni tergov-tezkor guruhi tarkibida hodisa sodir bo'lgan joyga vaqtda yoki umuman chiqmasligi; tungi soat 22:00 dan ertalab, soat 06:00 gacha bo'lgan vaqtda so'rovxonalarda so'rov TQT o'tkazilishi kabilar amaliy misollar bilan asoslantirilgan.

Bobning uchinchi paragrafi "*Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid huquqiy munosabatlar tahlili*"ga bag'ishlanib, TQFda inson huquq va erkinligini ta'minlashda huquq va erkinliklari ta'minlanishi lozim bo'lgan shaxslarning tasniflanishi muhim hisoblanib bular: TQFni amalga oshirishda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar (tezkor xodim va TQF organi rahbari, advokat, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud); TQFda ishtirok etayotgan tezkor ahamiyatga ega shaxs (jinoiatni sodir etishni niyat qilgan, rejalashtirayotgan, tayyorlanayotgan, gumonlangan shaxs); TQFni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxslar (TQFga ko'maklashuvchi fuqarolar, jabrlanuvchi, guvohlar, ekspert-kriminalist, mutaxassis va xolislar)dan iborat bo'lishi asoslantirilgan. Soha olimlarining fikr-mulohazalarini o'rganish asosida TQFda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar huquqning quyidagi tarmoqlari: *jinoiy-huquqiy* va *ma'muriy-huquqiy* (G.N.Vasilenko, N.Izotova, V.Karimov, Ye.V.Kuznetsov); *jinoiat-protsessual huquqiy* (A.L.Aganesyan, A.Ye.Vitovtov, I.F.Gaskarov, T.V.Zelenskaya, M.P.Kotuxov, D.M.Klyonov, A.Y.Kozlovskiy); *jinoiat-ijroiya huquqiy* (L.Ye. Shetnyov); *fuqaroviy-huquqiy* (V.A. Cherkov); *mehnat-huquqiy* (S.P. Matveyev); *moliyaviy-huquqiy munosabatlar* (R.V. Gonov, K.Yu. Efremov) bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslantirilib, ushbu munosabatlar TQF nazariyasi va amaliyotida "*tezkor-qidiruv munosabatlari*" deb nomlanishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Dissertantning fikricha, tezkor-qidiruv munosabatlari quyidagilar: 1) TQFni amalga oshirishda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar (advokat, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud) va idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbar; 2) idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbar – tezkor xodim; 3) tezkor xodim – tezkor xodim; 4) tezkor xodimlar – TQF ob'yektlari (*jinoiatni sodir etishni niyat qilgan, rejalashtirayotgan, tayyorlangan, gumonlanayotgan shaxs*)lar; 5) tezkor xodim – TQFga faol tarzda ko'maklashuvchi fuqarolar va xolislar; 6) TQFga ko'maklashuvchi fuqarolar – shohid, guvoh; 7) TQFga ko'maklashuvchi fuqarolar – idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbarlar, surishtiruvchi va tergovchilar o'rtasida yuzaga kelishini, bu munosabatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning amaliy zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotchi inson huquq va erkinliklarini samarali ta'minlashda xorij tajribasiga asoslanib vakolatli davlat organi tomonidan jinoiatlarni tez va to'la fosh etishda, isbotlash jarayonini inson omilisiz, dalillarni to'plashda kriminalistik vositalar, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan unumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish nuqtai nazaridan, avvalo, "12.00.09" ixtisoslik nomlanishini mantiqan to'g'ri bo'lishi uchun "*Jinoiat protsessi. Kriminalistika va sud ekspertizasi; tezkor-qidiruv faoliyati*" deb o'zgartirish, HMQO tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Tezkor-qidiruv faoliyati» nomli fanning o'quv

dasturida tadqiq etilayotgan mavzu yo'qligi aniqlanib, kelgusida TQFni amalga oshiruvchi organ tezkor xodimlarining bilimini oshirish maqsadida *“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash”* mavzusini mazkur o'quv dasturiga alohida mavzu sifatida kiritishni, TQF yo'nalishidagi ilmiy maktabda samarali tadqiqot olib borishi uchun jami 115 ta doktorlik dissertatsiya mavzulari ro'yxatini ishlab chiqib, TQF yo'nalishida himoya qilingan avtoreferatlar, dissertatsiya mavzulari ro'yxati, ilmiy grantlar loyihalari, faoliyatga taalluqli xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar (darslik, monografiya, o'quv-amaliy qo'llanmalar)ning elektron bazasini shakllantirish maqsadida «Tezkor-qidiruv faoliyatining ilmiy-ta'lim portali»ni yaratish taklifini ilgari suradi.

Tadqiqot natijasida dissertant tomonidan TQFda inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashning xalqaro va milliy normativ hujjatlardagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha va TQFga oid huquqiy munosabatlar yuzasidan ilmiy asoslantirilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning bugungi holati”**ga bag'ishlangan. Unda TQFda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid vazifalar, faoliyatning bugungi holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va boshqa turli muammolar tahlil qilingan.

Bobning birinchi paragrafi *“Tezkor-qidiruv faoliyati ishtirokchilarini inson huquqlari, erkinliklarining va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid vazifalarning o'ziga xos xususiyati”*ga bag'ishlanib, unda TQFning ishtirokchilari quyidagilarga tasniflangan: 1) TQFni amalga oshiruvchi organning rahbari va xodimi; 2) TQFni o'tkazish haqida yozma topshiriq berish vakolati berilgan surishtiruvchi va tergovchi; 3) TQFni nazorat qiluvchi vakolatli prokuror; 4) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq TQFni o'tkazishga sanksiya beruvchi vakolatli sudya; 5) jinoyat sodir etishni rejalashtirayotgan, tayyorgarlik ko'rayotgan yoki sodir etgan gumondor shaxs; 6) TQFni amalga oshiruvchi tezkor xodimga murojaat qilgan jabrlanuvchilar; 7) TQFda tezkor-qiziqish uyg'otuvchi shaxs (gumondor, guvoh, jabrlanuvchi va boshq.)ning manfaatlarini ta'minlovchi advokat; 8) TQFni amalga oshiruvchi organning xodimlariga yordam beradigan guvohlar; 9) TQFni amalga oshiruvchi organning xodimiga yordam beradigan xolislari; 10) TQF vazifalarini hal etishda ko'maklashuvchi ekspert va mutaxassislar.

Tadqiqot ishi doirasida yigirmadan ortiq huquqshunos olimlarning fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishib, TQF ishtirokchilari o'rtasida amaliyotda real uchrayotgan muammolarning sabab va shart-sharoitlarini tahlil qilish, sohaviy xizmatlar va boshqa davlat organlari bilan doimiy hamkorlikni amalga oshirish zarurati asoslantirilgan.

Dissertant amaliyotda uchrayotgan muammo (masalan, TQFga ko'maklashuvchi fuqaroni tergov va sudga jalb qilish; tunda TQF o'tazishda xolislarni jalb etish va boshq.)larni hal qilishda qonunchilikka tegishli o'zgartish kiritish va xodimlarning me'yoriy qoidalarga amal qilishini zarur deb hisoblaydi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi*

*omillar*” deb nomlanib, unda faoliyatni samarali tashkil etishga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi huquqiy, ob’ektiv va sub’ektiv omillar 750 nafar amaliyot xodimlari bilan o’tkazilgan anketa so’rovnoma natijalari bilan asoslantirilgan. Xususan, *huquqiy omillar* bo’yicha: respondentlarning 34,0 foizi qonunchilikdagi mavjud bo’shliqlar; 32,0 foizi qonunchilikdagi kolliziyalar; 34,0 foizi esa huquqiy nigilizm; *ob’ektiv omillar* bo’yicha: respondentlarning 70,0 foizi jinoyatlarning barchasi ro’yxatga olinmasligi; 24,0 foizi ba’zida TQT olis hududlarda o’tkazilishi; 6,0 foizi ba’zida tezkor-qidiruv tadbirlari bayram kunlari o’tkazilishi; *sub’ektiv omillar* bo’yicha: respondentlarning 38,0 foizi ayrim hollarda tezkor xodimlar noqonuniy bo’lsa-da, rahbarning ko’rsatmasiga amal qilayotganligi, murojaatlarning ko’rib chiqish tartibini buzish, qonuniy asoslarsiz TQTni o’tkazish; 32,0 foizi esa TQFni amalga oshiruvchi organ rahbari lavozimida uzoq muddat ishlashni xohlashi bois jinoyatlarni to’liq ro’yxatga qo’ydirmasligi, idoraviy nazoratni yetarli tashkil etmasligi; 30,0 foizi prokuror nazorati to’liq tashkil etilmasligini bildirishgan. Mazkur omillar natijasida TQFda inson huquqlari buzilishi holatlari empirik hujjatlar (prokuratura organlarining taqdimnomalari va xizmat tekshiruvi xulosalari)dagi amaliy misollar orqali asoslantirilgan.

Tadqiqotchi TQFni amalga oshiruvchi tezkor xodimlar tomonidan 16 ta TQTni o’tkazishda yuzaga kelayotgan muammolarni o’rganib, amaliy misollar va amaliyot xodimlarining anketa so’rovnoma natijalari bilan asoslantirgan. Jumladan, *“TQTni o’tkazishda tezkor xodimlar qanday kamchiliklarga yo’l qo’yishmoqda?”* degan savolga respondentlarning 30,0 foizi ayrim tezkor xodimlar ruxsat talab etilmaydigan TQTning mazmun-mohiyatini to’liq bilmasligi; 20,0 foizi esa ba’zi holatlarda turar joylar (sanksiya) va boshqa joylarni (sanksiyasiz) ko’zdan kechirish tadbiri chegarasini bilmasligi; 16,0 foizi ba’zi hollarda qonuniy asoslarsiz, boshqa hududlarda tadbir o’tkazilishi; 14,0 foizi tadbir natijasi yuzasidan JPKga muvofiq hujjatlar tuzilmasligi; 20,0 foizi xolislarning tadbirga o’z vaqtida jalb etilmasligi; *“TQFni amalga oshiruvchi organ rahbari qarori asosida TQTni o’tkazishda tezkor xodimlar qanday kamchiliklarga yo’l qo’yishmoqda?”* degan savolga respondentlarning 26,0 foizi ushbu tadbirlarning mazmun-mohiyatini aniq bilmasligi bois dastlabki hujjatlar tuzilmasdan tadbir yakuni bo’yicha hujjatlar rasmiylashtirilishi; 24,0 foizi TQFga jalb etilgan ko’maklashuvchi fuqarolar xavfsizligi yetarli ta’minlanmasligi; 40,0 foizi xodimlarning yoshligi va tajribasizligi; 10,0 foizi idoraviy nazorat yetarli ta’minlanmaganligi; *“Tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazishda qanday tashkiliy muammolar mavjud?”* degan savolga respondentlarning 90 foizi xolislarning tadbirga jalb etilishida davlat tomonidan mablag’ ajratilmaganligi bois tezkor xodimlarning xolislarga o’z hisobidan pul berishi; 100,0 foizi tadbirlarni o’tkazish bo’yicha sodda, o’quv-amaliy qo’llanmalarining yo’qligi; 42,0 foizi har bir tadbir bo’yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini tezkor xodimlarning bilmasligi; 10,0 foizi TQFga ko’maklashuvchi fuqaroni tergovga jalb etishning xavfsiz, maqbul mexanizmning yo’qligi; shuningdek, *sanksiya asosida TQTni o’tkazishda amaliyotda uchrayotgan muammolar yuzasidan respondentlarning fikrlari o’rganilganda* 22,0 foizi ba’zida turar joylarni tekshirishda qaror nusxasi fuqarolarga taqdim etilmasligi; 54,0 foizi maxsus tadbirlarni o’tkazishda vaqt cho’zilishi bois tezkor harakatlanishning imkoni yo’qligi; 24,0 foizi kechiktirib

bo'lmaydigan vaziyatlarda sanksiya beruvchi organga vaqtida xabar bermaslik yoki qaror tasdiqlanmasligini ta'kidlashgan. Bu kabi tashkiliy muammolarni hal etishda 208 ta tuman (shahar)da TQFni idoraviy nazorat qilish va tezkor xodimlarning TQTni o'tkazish malakasi va ko'nikmasini tizimli ravishda oshirib borishning zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot natijasida dissertant tomonidan TQFda inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy muammolarni hal etish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish”**ga bag'ishlanib, mazkur masalada ayrim xorij davlatlarining tajribasi tahlil qilingan va faoliyatning huquqiy, tashkiliy asoslarini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda xorijiy davlatlar qonunchiligi normalarining tahlili”*ga bag'ishlanib, unda Rossiya Federatsiyasi, Abxaziya, Armaniston, Belarus, Litva, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston, Turmaniston, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlarining *“Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”*, *“Tezkor faoliyat to'g'risida”* va *“Maxsus qidiruv faoliyati to'g'risida”*gi qonunlarining normalari tahlil qilinib, ijobiy jihatlari (*TQTning o'tkazilishiga sudning ruxsat berishi, fuqarolarning ariza va xabarlari TQTni o'tkazish uchun asos bo'lishi, TQTni o'tkazish muddatlari*) amaldagi *“Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'ri-sida”* qonun normalariga singdirish zarurati asoslantirilgan. Bundan tashqari, jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining tezkor-qidiruv qonunchilik normalari bilan mutanosibligini ta'minlashda Ozarbayjon, Moldova, RF, Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina davlatlari bilan O'zbekiston Respublikasining JPKning normasi qiyosiy tahlil qilinib, HMQO'lari tizimida yagona Tergov qo'mitasini tashkil etish; tergov va sud organlaridan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda qidiruv e'lon qilingan ayblanuvchini qidirib topish vazifasini tegishli TQFni amalga oshiruvchi organlar tomonidan bajarish kabi qoidalarni hamda *“Abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risidagi axborotni olish”* institutini JPKga kiritish taklifi ilgari surilgan.

Angliya, Belgiya, Daniya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Fransiya, Shveysariya, Shvesiya kabi davlatlarning *“Aloqa vositalarini nazorat qilish to'g'risida”*gi (1985), *“Odil sudlovni amalga oshirish to'g'risida”*gi (1996), *“Tezkor-qidiruv vakolatlarini tartibga solish to'g'risida”*gi (2000), *“Pochta va elektron jo'natmalar to'g'risida”*gi (1968), *“Politsiya to'g'risida”*gi (1966), *“Telekommunikatsiya orqali uzatiladigan yozishmalar daxlsizligini ta'minlash to'g'risida”* (1991), *“Telekommunikatsiya nazorati to'g'risida”*gi (1979), Jinoyat-protsessual (2011) hamda Sud-protsessual kodekslari (1952)ga binoan, telefon so'zlashuvlarini eshitish va pochta telegraf xabarlarini nazorat qilish kabi TQTni o'tkazish tartibi *“Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida”*gi Konvensiya talablariga binoan sudninig orderi asosida o'tkazish

amaliyoti o'rganilib, ushbu xalqaro standartlarni ijobiy qoida sifatida "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunga kiritish taklif etilgan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi "*Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga oid qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartishlar quyidagi guruhlariga: TQFning umumiy kategoriyalari; TQFni amalga oshiruvchi organlarning huquqiy maqomini mustahkamlash; TQFni o'tkazish tartibi; TQFning samarali tashkil etilishi; yakunlovchi qoidalarning alohida institut sifatida tasniflanishi taklif etilgan.

Dissertant fikricha, real muammolar va xorij tajribasiga asoslanib "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 2, 3, 4, 8, 12, 13, 14, 15, 16, 19, 20-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, 7<sup>1</sup>, 7<sup>2</sup>, 9<sup>1</sup>, 16<sup>1</sup>-moddalari va yangi tahrirda 4, 5-boblar bilan to'ldirish lozim deb hisoblab, qonun loyihasi tadqiqot ilovasida aks ettirilgan.

Uchinchi paragraf esa "*Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning tashkiliy asoslarini takomillashtirish*"ga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotchi fikricha, TQFni amalga oshiruvchi organ rahbari TQFda asosiy vazifani bajarib, idoraviy nazoratni amalga oshirishning o'n to'rt yo'nalishida, TQFga oid qonunlarni ijro etilishi ustidan prokuror nazorati tezkor xodimlarning amaliyotida eng ko'p kuzatilgan, xizmat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ayrim kamchiliklari va muammolarni o'rganishga qaratilgan olti yo'nalishda, sud nazorati esa shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan TQFni qonuniy asoslar va shartlarga ko'ra o'tkazilishini nazorat qilish bilan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlanadi deb hisoblaydi. Mazkur paragrafda TQFni nazorat qiluvchi sub'ektlar (*organ rahbari, prokuror va sudya*)ning bajarishi lozim bo'lgan funksiyalarining mexanizmlari ishlab chiqilib, inson huquqlarini ta'minlashda ushbu talablar asosida xizmat faoliyatini tashkil etishning zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot natijasida dissertant tomonidan TQFda inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashning *huquqiy va tashkiliy* asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## XULOSA

TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslarini takomillashtirishda quyidagi konseptual xulosalar ishlab chiqildi:

1. TQFning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish natijalariga ko'ra, uch davrga bo'linish haqida xulosaga kelindi:

***birinchi davr*** (X asrdan XX asrgacha)da TQFning vujudga kelishi asosan hokimiyat uchun kurash, uni saqlab qolishga intilish, isyonlar va dushmanlar doimiy tahdidining mavjudligi, hukmdorlarni qurolli kuchlar bilan bir qatorda, davlat xavfsizligi va huquq-tartibot xizmatlariga ham alohida e'tibor berishga majbur qilgan. Yashirin tarzda ma'lumotlar to'plash, kuzatish, razvedka va kontrazvedka kabi axborot olish usullari, ushbu faoliyatning tarkibiy qismlari

sifatida juda erta paydo bo'lgan. Tezkor-qidiruv va razvedka usullaridan foydalanish muhim sohaviy yo'nalish sifatida dastlabki bosqichlarda mamlakat sarhadlarini tashqi dushmanlardan himoya qilish hamda dushman istehkomlarini istilo qilishga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda hukmdorlar tomonidan joriy etilgan tartib va qonun-qoidalar to'plami huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan. Razvedka – qidiruv ishlari asosan harbiy maqsadlarda amalga oshirilgan bo'lib, bunda xufyalar, ayg'oqchilar, josuslarning axborotidan keng foydalanib davlatning ichki va tashqi xavfsizligi ta'minlangan. Ushbu davrda qabul qilingan qonunlar va boshqa adabiyotlarda TQF iborasi ishlatilmagan;

**ikkinchi davr** (XX asrning boshlaridan 90-yillarigacha) tarixan TQFning shakllanish va rivojlanish davri bo'lib, bu davrga kelib, davlat oldida yana bir muhim maqsad, ya'ni, mamlakat ichidagi huquq-tartibotni ta'minlash, turli xil va tavsifdagi jinoyatlarga qarshi kurashish kabi vazifalarni bajarish zaruriyati yuzaga kelgan bo'lib, bunday zaruriyat ayni vaqtda TQFning paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bo'lgan. TQFning yo'nalishlari va vazifalari o'zgarib, mavjud sharoitlarga moslashib, razvedik-qidiruv usullari davlatlararo, harbiy sohalardan tashqari, davlatchilikning boshqa muhim muammoli vazifalari bo'lgan. Jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bog'liq faoliyatini amalga oshirishga qaratilib, Sobiq ittifoq davrida mazkur faoliyat Butunittifoq Favqulodda Komissiya, Bosh siyosiy boshqarma, Ichki ishlar xalq komissariati (1918-yil 5-oktabrda Davlat xavfsizlik qo'mitasi va Ichki ishlar vazirligining Jinoyat qidiruv bo'linmalari, 1937-yil 11-aprelda Sotsialistik mulkni talon-toroj qilish bo'linmalari tashkil etilgan) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ular totalitar tuzum, shaxsga sig'inish fonida kommunistik partiya manfaatlari yo'lida faoliyat yuritgan.

**uchinchi davr** (1991–2024-yy.)da mustaqil O'zbekistonda TQFning tashkiliy va huquqiy jihatlari quyidagi bosqichlarda rivojlandi:

birinchi bosqich (1991–2016-yillar)da TQFni huquqiy tartibga solishga xizmat qiluvchi qonunlar va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Bularga: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992), Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari (1994), “Prokuratura to'g'risida” (2001), “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida” (2012) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida” (1991), “Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida” (1994), “Iqtisodiyot va soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (2001) qarorlari, shuningdek, TQF organlarining faoliyat yo'nalishiga oid idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilinib, TQFda inson huquqlarini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari yaratildi va ushbu masalaga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi;

ikkinchi bosqich (2016–2024-yillar)da inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda TQFni amalga oshiruvchi organlarning faoliyatiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularga: “Ichki ishlar organlari to'g'risida” (2016), “Davlat xavfsizlik xizmat to'g'risida” va “Davlat bojxona xizmati to'g'risida” (2018), “Prezident davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida” (2019)gi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" (2022)gi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida (2023)gi, "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2024) farmonlarni kiritish mumkin. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuniga o'n ikki yilda o'n bir marotaba o'zgartirish kiritilgan bo'lib, ularning aksariyati inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratildi. Jumladan, TQFni amalga oshiruvchi organlar ro'yxatiga Bosh Prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining (2017), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy razvedkasining (2019) bo'linmalari qo'shib, inson huquqlarini ta'minlash yo'lida TQFni amalga oshiruvchi organlar ko'paytirildi. Yangilangan Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid qariyb uch barovarga ko'proq qoidalarining qabul qilinganligi tadqiq etilayotgan masalani huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qildi.

2. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

*TQFda inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish deganda*, TQF ishtirokchilari tomonidan faoliyatga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar talabi asosida xizmat majburiyatlarini bajarish tushuniladi;

*TQFda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash deganda*, TQFda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklarini qo'riqlash, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi;

*TQFda inson huquqlari va erkinliklari buzilishi deganda*, TQFda ishtirok etuvchi sub'ektlarning noqonuniy xatti-harakati yoki harakatsizligi, hodisalar oqibatida fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, mulki, sha'ni, qadr-qimmatini hamda qonuniy manfaatlariga zarar etkazilishi tushuniladi;

*tezkor-qidiruv munosabatlari deganda*, TQF ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan ob'ektiv huquq va sub'ektiv majburiyatni bajarish bilan bog'liq munosabatlar tushuniladi.

3. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda TQFning prinsiplari quyidagi guruhlariga tasniflandi:

*birinchi guruh*: Konstitutsiyaviy prinsiplar – *qonuniylik*; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligi; korxonalar, muassasa, tashkilotlar, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish TQFni amalga oshirishda tezkor-qidiruv qonunchiligi hujjatlari talablariga aniq rioya qilish, shuningdek, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash shartligi bilan ifodalanadi;

*ikkinchi guruh*: sohaviy prinsiplar – konspiratsiya; oshkora va nooshkora usullar uyg'unligi, tezkor-xizmat xususiyatiga ega hujjatlar bilan ishlash qoidalarining alohida tartibi hamda bunday usullarning alohida xususiyati, TQFning shart-sharoitlari bilan belgilanadi;

*uchinchi guruh*: tashkiliy prinsiplar – *kasb etikasi hamda hamkorlik*, TQFning vazifalarini hal etishda yuksak kasbiy madaniyatga rioya qilgan holda davlat organlari jismoniy va yuridik shaxslar bilan samarali hamkorlik qilishga oid qoidalarni anglatadi.

4. TQF sohasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar haqida huquqshunos olimlar, mutaxassislarning fikr-mulohazalari bilan ilmiy bahsga kirishib, tezkor-qidiruv munosabatlarning jinoiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, jinoyat-protsessual huquqiy, jinoyat-ijroiya huquqiy, fuqaroviy-huquqiy, mehnat-huquqiy va moliyaviy-huquqiy munosabatlar bilan birga vujudga kelishi haqidagi nuqtai nazar belgilab olindi.

5. *Tezkor-qidiruv munosabatlari*: 1) TQFni amalga oshirishda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar – idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbar o'rtasidagi munosabat; 2) idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbar – tezkor xodimlar o'rtasidagi munosabat; 3) tezkor xodim – tezkor xodim o'rtasidagi munosabat; 4) tezkor xodim – TQF ob'ektlari (*jinoyatni sodir etishni niyat qilgan, rejalashtirayotgan, tayyorlayotgan, gumon qilingan shaxslar*) o'rtasidagi munosabat; 5) tezkor xodim – ko'maklashuvchi fuqaro o'rtasidagi munosabat; 6) ko'maklashuvchi fuqaro – jinoyatda gumon qilinuvchilar o'rtasidagi munosabat; 7) ko'maklashuvchi fuqaro – idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbar o'rtasidagi munosabatlardan iborat ekanligi, ushbu munosabatlarga kirishishda TQFda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar inson huquq va erkinliklarini ta'minlash lozimligi asoslantirildi.

6. Jinoyatlarni tez va to'la ochishda, maqbul dalillarni inson omilisiz to'plash masalasida shaxslarni iqrorlik ko'rsatuvini olish emas, balki zamonaviy kriminalistik, sud ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazib, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda, ularning aybini boshqa dalillar bilan isbotlashga ustuvorlik berish yondashuvida TQFni tashkil etishga e'tibor qaratish, shuningdek, aksariyat MDH davlatlarining OAK tomonidan belgilangan yuridik fanlar tarmog'ining ixtisosliklar ro'yxati, qolaversa, HMQOning OTMda tashkil etilgan "Kriminalistika va sud ekspertizasi" hamda "Tezkor-qidiruv faoliyati" yo'nalishlaridagi kafedlarda o'qitiladigan fanlarning nomlanishiga muvofiq "12.00.09" ixtisoslik nomini "Jinoyat prosessi. Kriminalistika va sud ekspertizasi; tezkor-qidiruv faoliyati" mazmunida bayon etish taklif etildi.

7. *"Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi"* prinsipiga asoslanib, hozirda ko'p sodir etilayotgan jinoyatlar yuzasidan TQFning ilmiy maktabida tadqiqotlar olib borish uchun 26 ta fan doktori (DSc) va 89 ta falsafa doktorligi (PhD) bo'yicha taxminiy dissertatsiya mavzulari ishlab chiqildi.

8. TQFni amalga oshiruvchi davlat organlari uchun yetuk mutaxassislarni tayyorlashda HMQOning oliy ta'lim muassasalari (O'zbekiston Respublikasi Toshkent davlat yuridik universiteti, Davlat bojxona instituti, Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, IIV akademiyasi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi)da o'qitiladigan "Tezkor-qidiruv faoliyati" fani o'quv dasturiga *"Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash"* nomli mavzuni kiritish taklif etildi.

## **II. Milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar:**

### **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga:**

1. Shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari cheklanishi bilan bog'liq TQFni sudning sanksiyasi bilan o'tkazilishi uchun JPKning 29-moddasi birinchi qismidagi: "pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash" degan so'zlardan so'ng, *"telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib*

*boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborotlar olishga oid tergov harakatlarini o‘tkazish haqidagi; pochta, kurerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborotlar olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish”* mazmunidagi so‘zlar bilan to‘ldirish taklif etildi.

2. TQF va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar o‘rtasida hamkorlikni ta‘minlashda 39<sup>2</sup>-moddasi birinchi qismidagi: “arizani, xabarni tergovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazishga” so‘zlaridan so‘ng “vakolati doirasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga so‘rovnoma yuborishga haqlidir. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organning tezkor bo‘linmalari belgilangan muddatda so‘rovnoma tashabbuskoriga ma‘lumotnoma yuboradi” mazmunidagi so‘zlar bilan to‘ldirish taklif etildi.

3. TQFni amalga oshiruvchi organlar tergovga qadar tekshiruv jarayonida xolislardan foydalanayotganligi bois, JPKning 73-moddasi 1-qismidagi: “Xolislar” so‘zidan so‘ng, “tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi”; 73-moddasi 2-qismidagi: “Tergov harakatini boshlashdan oldin” so‘zlaridan so‘ng “tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi”; 74-moddasi 1-qismidagi: “tergov harakatining bayonnomasi bilan tanishish” so‘zlaridan keyin “tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxsi”, ikkinchi qismidagi “xolis” so‘zidan so‘ng “tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar mansabdor shaxsining” so‘zlari bilan to‘ldirish taklif etildi.

4. TQFning ishtirokchisi bo‘lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning jinoyatlarni tez va to‘la fosh etishdagi vakolatlarini kengaytirishda JPKni 21<sup>1</sup>-bob va tarkibini quyidagi normalar bilan to‘ldirish taklif etildi:

***Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risidagi axborotni olish***

***171<sup>1</sup>-modda.*** *Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar bo‘yicha axborotni olish uchun asoslar*

***171<sup>2</sup>-modda.*** *Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar bo‘yicha axborotni olish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish*

***171<sup>3</sup>-modda.*** *Sudya ajrimi*

***171<sup>4</sup>-modda.*** *Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar bo‘yicha axborotni olish tartibi.*

---

(Qonun loyihasi tadqiqot ishining 1-ilovasida keltirilgan).

**O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga:**

5. MDH davlatlari tezkor-qidiruv qonunchiligi tajribasi va o‘tkazilgan tadqiqot asosida TQFda inson huquqlarini ta‘minlashda TQTni davlatlar hududida o‘tkazish zarurati yuzaga kelganida, O‘zbekiston hukumati bilan boshqa davlat o‘rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarning qoidasiga amal qilinishi uchun 2-moddani quyidagi: “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida

*O‘zbekiston Respublikasining tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi”* mazmunidagi 2-qism bilan to‘ldirish taklif etildi.

6. Belarus, Litva, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston qonunchiligi asosida TQFni amalga oshiruvchi organ xodimlarining TQTni o‘tkazish yuzasidan bilimlarini mustahkamlashda 3-moddani quyidagi tahrirda bayon etish taklif etildi:

### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

**tezkor-qidiruv faoliyati** – ushbu Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari (bundan buyon matnda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar deb yuritiladi) tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatining tashkiliy asoslariga muvofiq vazifalarni hal etishga qaratilgan oshkora va nooshkora usullarda tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turi;

**tezkor-qidiruv tadbirlari** – tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida oshkora va nooshkora usullarda kuch va vositani qo‘llab, ahamiyatga molik shaxslar, faktlar, holatlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni aniqlash, to‘plash va ulardan foydalanishdan iborat harakatlar majmui;

**shaxsiy izquvarlik** – tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etishda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbarining qarorisiz o‘tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari majmui.

7. TQFni amalga oshiruvchi organlarning tezkor bo‘linmalari amaliyotda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida yoki sudning qarori ijrosini ta‘minlashda yetkazilgan moddiy zararlarni undirish, shuningdek, korrupsiyaviy, giyohvandlik va terrorizmga oid ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va fosh etish kabi vazifalarni bajarayogonligini inobatga olib, 4-moddaning ikkinchi xatboshidagi “mol-mulkini himoya qilinishini” so‘zlaridan so‘ng “*yetkazilgan moddiy zararni undirish choralari*”, uchinchi xatboshini: “*o‘z vakolatlari doirasida jinoyat yoki boshqa turdagi huquqbuzarliklar*” so‘zlari bilan to‘ldirish taklif etildi.

8. MDH davlatlari tezkor-qidiruv qonunchiligi tajribasi va o‘tkazilgan tadqiqot asosida TQFni amalga oshiruvchi organlarning amaliyotda TQTning o‘tkazilishiga asos bo‘layotgan holatlarni inobatga olib, 15-moddaning birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etildi:

### **15-modda. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar**

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

*tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbarining so‘rovi;*

*O‘zbekiston Respublikasining JPK 364-moddasi 1-qism 1-bandiga binoan harakatdan to‘xtatilgan jinoyat ishi mavjudligi;*

*surishtiruv, tergov organlari va prokurorning yurituvidagi tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishi materiallari bo‘yicha yozma topshirig‘i va ko‘rsatmalari;*

*jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;*

*tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ayon bo‘lgan quyidagi ma‘lumotlar:*

*jinoyatlarni tayyorlash, sodir etish alomatlari to'g'risida, shuningdek, jinoyatlarni tayyorlashga yoki sodir etishga daxldor shaxslar haqida;*

*shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida;*

*jinoyat sodir etib, tergov va sud organlaridan yashiringan, jazoni ijro etish muassasalaridan va tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sifatida ruhiy asab kasalliklar shifoxonasidan qochgan shaxslar haqida;*

*bedarak yo'qolgan shaxslar haqida;*

*tanib olinmagan murdalar haqida;*

*kasalligi yoki yoshi tufayli o'zi haqida ma'lumot bera olmaydigan shaxslar haqida;*

*jinoyat ishi yuzasidan sudlanuvchini qidirish haqida, ijroga qaratilgan fuqarolik ishlari bo'yicha sudning qarorlari va boshqa organ hujjatlari;*

*tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning ushbu moddada ko'rsatilgan asoslar bo'yicha so'rovnomalari;*

*O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqiy yordam ko'rsatish sohasidagi hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida kelib tushgan so'rovnomalari.*

9. Yevropa va MDH davlatlari tezkor-qidiruv qonunchiligi tajribasi asosida 16-moddaning birinchi qismidagi "tadbirlarining o'tkazilishiga" so'zlaridan keyin "prokuror" so'zini "tergov sudyasi", ikkinchi qismidagi "yo'l qo'yiladi" so'zidan keyin "prokuror" so'zini "tergov sudyasi", uchinchi qismidagi "yigirma to'rt soat ichida" so'zidan keyin "prokuror" so'zini "tergov sudyasi", to'rtinchi qismidagi "ruxsat etiladi" so'zidan keyin "prokuror" so'zini "tergov sudyasi" so'zlari bilan almashtirish taklif etildi.

10. Xorij tajribasi va tezkor-qidiruv qonunchiligi normalarining tahlili asosida, inson huquqlarini ta'minlashda TQTNi o'tkazish muddatlari muhim omil bo'lganligi bois, uni quyidagi tahrirdagi norma bilan to'ldirish taklif etildi:

**16<sup>1</sup>-modda. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish muddatlari**

*Tezkor-qidiruv tadbirlari soat, sutka va oylar mobaynida o'tkaziladi.*

*Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbarining qarorisiz shaxsiy izquvarlik yo'li bilan so'rov; ma'lumotlar to'plash; qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig'ish; predmetlar va hujjatlarni tekshirish; shaxsning aynanligini aniqlash; joylar, binolar, inshootlar, joyning uchastkalarini, transport vositalarini ko'zdan kechirish kabi tezkor-qidiruv tadbirlari tergovga qadar tekshiruv muddati doirasida, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbarining qarori asosida tezkor-qidiruv ishini yuritish doirasida tezkor-qidiruv tadbirlari bir oygacha, surishtiruvchi va tergovchi, prokurorning yozma topshiriq va ko'rsatmalari, sudning qarorlari (ajrimi) asosida tezkor-qidiruv tadbirlarini protsessual hujjatda ko'rsatilgan muddatda, ko'pi bilan bir oy ichida o'tkazilishi lozim. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish muddatlarini uzaytirishga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar rahbarining qarori yoki tergov sudyasining ajrimi asosida ko'pi bilan bir oygacha ruxsat beriladi.*

*Pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish bir oydan, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish; abonentlar*

yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish tezkor-qidiruv tadbirlari olti oydan ortiq muddatda o'tkazilishi mumkin emas.

Mazkur normaning ijrosini ta'minlashda TQFni amalga oshiruvchi organlarning "Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish, rasmiylashtirish hamda natijalarini tergov va sud organlariga taqdim etish haqida"gi qo'shma qaroriga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim.

11. Qozog'iston va Belarus tezkor-qidiruv qonunchiligi tajribasi va o'tkazilgan tadqiqot asosida tezkor-qidiruv qonun normasining JPK normasi bilan mutanosibligini ta'minlashda 19-moddaning nomlanishi, birinchi va to'rtinchi qismidagi "TQF natijalari" so'zlarini "TQF materiallari" so'zlari bilan almashtirish, shuningdek, amaliyotda TQFga ko'maklashuvchi fuqaroni tergov va sudga jalb etishning aniq mexanizmi yo'qligi bois ushbu moddani "maxfiylik qoidasiga rioya qilgan holda, TQFga ko'maklashuvchi fuqarolar dastlabki tergov va sud muhokamasida guvoh tariqasida jalb etiladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda TQFni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ushbu fuqarolar va ularning oila a'zolariga nisbatan shaxsiy xavfsizlik choralari ta'minlanishi shart" mazmunidagi oltinchi qism bilan to'ldirish taklif etildi.

12. "Shaxs" tushunchasi keng ma'noli tushuncha hisoblanishi, shuningdek, MDH davlatlari (Abxaziya, Belarus, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston) tezkor-qidiruv qonunchiligi tajribasi va o'tkazilgan tadqiqot asosida TQFga ko'maklashayotganning yoshiga qo'yilgan talablar, tezkor xodimlar bilan fuqarolar o'rtasida fuqaroviy-huquqiy munosabatlar yuzaga kelishini inobatga olib, TQFni amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotganning maqomini belgilashda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 12, 13, 14, 20-moddalaridagi "ko'maklashuvchi shaxs" so'zlarini "ko'maklashuvchi fuqaro"ga o'zgartirish taklif etildi.

13. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda TQFning tashkiliy asoslari (xodimlar, ko'maklashuvchi fuqarolar, ijtimoiy-huquqiy himoya, moliyaviy va moddiy texnik ta'minlash, nazorat, hamkorlik, javobgarlik) mavjud bo'lsagina TQFni amalga oshiruvchi organlar tomonidan TQT o'tkazilishi bois, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 4-bobi nomini o'zgartirish va uning tarkibini quyidagi normalar bilan to'ldirish taklif etildi:

**"4-bob. Tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etish**

**22-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlarini, shuningdek, ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish

**23-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan fuqarolarni, shuningdek, ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish

**24-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyatini moliyaviy ta'minlash

**24<sup>1</sup>-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyatini moddiy-texnik ta'minlash

**25-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyatidagi sarf-xarajatlarni tekshirish

**26-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyati ustidan idoraviy nazorat

**27-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyati ustidan prokuror nazorati

**27<sup>1</sup>-modda.** Tezkor-qidiruv faoliyati ustidan sud nazorati

**28-modda.** *Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning qarorlari va mazkur organlar xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish*

**28<sup>1</sup>-modda.** *Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning hamkorligi*

**28<sup>2</sup>-modda.** *Tezkor-qidiruv faoliyati sohasida xalqaro hamkorlik.*

**29-modda.** *Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik*".

14.MDH davlatlari tezkor-qidiruv qonunchiligi tajribasi va o'tkazilgan tadqiqot asosida 5-bob tarkibida quyidagi yakunlovchi normalarni qoldirish taklif etildi:

**"5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**30-modda.** *Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish*

**31-modda.** *Ushbu Qonunning kuchga kirishi*".

---

(Qonun loyihasi tadqiqot ishining 1-ilovasida keltirilgan).

15. Tadqiqot ishi doirasida 100 nafar advokat bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, TQFni amalga oshiruvchi organ xodimlariga nisbatan dalillarni va TQT natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) faktlari bo'yicha JKning 230<sup>1</sup> va 230<sup>2</sup>-moddalari bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishlarini tergov qilishda tergovchilarning faktik yoki huquqiy jihatdan yanglish qaror qabul qiliyotganligi va buning oldini olishda, JKning Maxsus qism sharhida nazarda tutilgan qoidalar bilan chegaralanmaslik uchun ushbu ikki o'xshash jinoyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini ishlab chiqish va sud-tergov amaliyotiga tatbiq etish taklif etildi.

16. TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda TQFni amalga oshiruvchi organlarning "*TQFda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni tashkil etish tartibi haqida yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida*" qo'shma qaror loyihasini tayyorlash va tezkor xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida tadqiqot mavzuiga oid maxsus o'quv kursi bo'yicha o'qitish, sinovlar qabul qilish va sertifikatlar berish taklif etildi.

17. TQFni amalga oshiruvchi organlar o'rtasida TQFning vazifalarini tizimli hamkorlik asosida ijobiy hal etishda "*Jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etishda hamkorlik haqidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida*" qo'shma qarorni tayyorlash taklif etildi.

